KUCH ADOLATDADIR Amir TEMUR

ADOLAT MEZONI

GAZETA 2010-YIL 3-MAYDAN CHIQA BOSHLAGAN // HUQUQIY-IJTIMOIY VA MA'NAVIY-MA'RIFIY GAZETA // ISSN 2181 - 483X WWW.ANDIJONSADOSI.UZ // № 38 (568) 2025-YIL, 6-SENTABR



MARHAMAT TUMANI PROKURORI OYBEK QAYUMOVNING AHOLIGA MUROJAATI

ASSALOMU ALAYKUM, AZIZ MARHAMATLIKLAR VA TUMANIMIZ MEHMONLARI!

Bugungi kunda Muhtaram Prezidentimiz tomonidan yurtimizda fuqarolarning tinchlik va osoyishtaligini ta'minlash, qonun bilan qo'riqlanadigan huquq va manfaatlarini himoya qilish, buning uchun jinoyatchilik va huquqbuzarlikka qarshi kurash tizimini tubdan isloh qilishni davlat siyosatining eng ustuvor vazifalari qatoriga ko'tardilar.

Ushbu maqsadlarga erishish yo'lida barcha kuch-vositalar, bilim va tajribalar safarbar etildi.

Xususan, jinoyatchilik va huquqbuzarlikka qarshi kurash tizimi mutaxassislarning chuqur, ilmiy asoslangan takliflari asosida yo'lga qo'yilmoqda.

Shunga ko'ra, **tumanimizda "namunaviy xavfsiz ko'cha"lar va "namunaviy xavfsiz yo'lak"lar tashkil etilib, aholi gavjum joylar, bozor va savdo majmualariga, ta'lim muassasalariga va maktablarning ochiq sport maydonlariga yuzni tanib oluvchi va boshqa turdagi kameralari o'rnatildi.**

Shuningdek, voyaga yetmaganlar va yoshlar o'rtasida jinoyatlarni oldini olish maqsadida "Rahbar va yoshlar" uchrashuvlari, ishsizlarni ish bilan ta'minlash maqsadida mehnat yarmarkalari, aholi o'rtasida mahallalarda sodir etilgan jinoyatlarni tanqidiy muhokamalari olib borilib, jinoyatlarni kelib chiqishiga shart-sharoit yaratgan omillarni aniqlash hamda bunga yo'l qo'ygan mas'ullarga nisbatan choralar ko'rib kelinmoqda.

Hurmatli vatandoshlar, huquqni muhofaza qiluvchi organlar tomonidan jinoyatchilik va huquqbuzarliklarni oldini olishga qaratilgan tadbirlarni samarali tashkil etilishida o'zingizni hissangizni qo'shishingizni so'rab qolamiz.

Sovuq qurol yoki tig'li buyumlarni olib yurish qoidalariga, firibgarlik va o'g'irlik jinoyatlari oqibatida jabrlanuvchi bo'lib qolmasligingiz uchun zaruriy ko'rsatmalarga amal qilishingizni, sodir etilishi mumkin bo'lgan va sodir etilayotgan huquqbuzarliklar hamda jinoyatlar haqida zudlik bilan xabar berishingizni, bank plastik kartalaridan xavfsiz foydalanish tartibiga rioya etishingizni, ijtimoiy tarmoqlardagi turli firibgarlikka asoslangan o'yinlar va shartlarda ishtirok etmasligingizni so'rab qolamiz.

Biz shundagina tumanimizni jinoyatdan holi hududga aylantirib, yurtimiz ravnaqiga o'z hissamizni qo'shamiz!

"LOYIHA DOIRASIDA CHOP ETILGAN SAHIFANI QIZIQISH BILAN O'QIDIK",

– deydi "Andijon suv ta'minoti" AJ Axborot xizmati rahbari, matbuot kotibi Marhabo NASRIDDINOVA.



O'zbekiston Oliy Majlisi huzuridagi Fuqarolik jamiyati institutlarini qo'llab-quvvatlash jamoat fondi tomonidan moliyalashtirilgan "Korrupsiyasiz jamiyat – taraqqiyot kafolati" nomli loyiha doirasida chop etilgan "Adolat mezoni" gazetasi korxonamiz ishchi-xodimlariga bepul tarqatilgan edi.

Loyiha doirasida tayyorlangan sahifa menga manzur bo'ldi. Sahifada korrupsiyaga qarshi kurash borasidagi dolzarb mavzular yoritilgan bo'lib, keng jamoatchilik uchun qiziqarli materiallarni taqdim etmoqda. Bu esa ishchi-xodimlarimizni bilim va dunyoqarashini yanada boyitadi.

Darhaqiqat, yurtimizda so'nggi yillarda korrupsiyaga qarshi kurash, ochiqlik va shaffoflikni ta'minlash bo'yicha izchil islohotlar amalga oshirilmoqda. Albatta bunga har bir fuqaro o'z hissasini qo'shishi zarur.







YANGI O'ZBEKISTON QASIDASI

Har so'zniki desam men, rostu rasida bo'lg'ay,
Rostu rasida so'zdan ezgu qasida bo'lg'ay,
Har bir kalom muhabbat, baxt tegrasida bo'lg'ay,
Rostu rasida so'zni keltirdim senga bu on,
Ey Yangi O'zbekiston, ey Yangi O'zbekiston!

Uchinchi Uyg'onishning shamollari muborak,
Yangi tug'ilgan zurriyod savollari muborak,
Keyingi yuz yilning xush xayollari muborak,
Bugundan-da charog'on ertangi O'zbekiston,
Ey Yangi O'zbekiston, ey Yangi O'zbekiston!

Bir yuz o'ttiz elatning boshpanasi, tomi bu,
Inson huquq va erki, chin baxtning nizomi bu,
Hazrat Amir Navoiy nizomin davomi bu,
"Yangi Xamsa"lar yozib, qilsam arzir armug'on,
Ey Yangi O'zbekiston, ey Yangi O'zbekiston!

Salkam qirq milyon xalqning omadidan so'zlasam,
Ko'ko'par binolarning qomatidan so'zlasam,
Tinch-osoyish yurt bag'ri, sarhadidan so'zlasam,
So'zlarimdan bol tomib, yaralgay yangi doston,
Ey Yangi O'zbekiston, ey Yangi O'zbekiston!

Vatan uchun, millat-u xalq uchundir barchasi,
Allohimning ne'mati – Sharq uchundir barchasi,
Kamolu taraqqiyot, barq uchundir barchasi,
Yangi Farg'ona, Yangi Namangonu Andijon –
Ey Yangi O'zbekiston, ey Yangi O'zbekiston!

Inson fenomeniga oliy baho qo'yilgan,
Yangi tariximiz bu, xalq ustuvor, deyilgan,
Tonglari saodatning suvlariga chayilgan,
Har tanga yangi ruh bu, har tan uchun yangi jon,
Ey Yangi O'zbekiston, ey Yangi O'zbekiston!

Chegarani yopish yo'q, balki do'stga ochish bor,
Kambag'alni boy qilib, boshidan dur sochish bor,
Falastinu Olmonni chin do'st deya quchish bor,
Qo'shni bilan birodar, do'stlar-la xos qadrdon –
Ey Yangi O'zbekiston, ey Yangi O'zbekiston!

Ijtimoiy davlat bu, ijtimoiy adolat,
Sof vijdoniy holat bu, pok irfoniy kamolot,
Ulug'bekning vorisi boz ufqlarga qo'ydi ot,
Intilsa ko'kka kimki, topgay ilmdan narvon,
Ey Yangi O'zbekiston, ey Yangi O'zbekiston!

Og'irni yengil qilur logistika markazlar,
Bir qadam Amriqo-yu, Eron-u Fors ko'rfazlar,
Tan berardi ko'rganda, o'shal Somu Yofaslar,
Bobolarni shod etding, pirlaringni – shodumon,
Ey Yangi O'zbekiston, ey Yangi O'zbekiston!

Qayga borsa Yurtboshim, kitob bilan borgaydir,
O'zbekona urf, a'mol, odob bilan borgaydir,
Qutlug' qadam, yorug' yuz – oftob bilan borgaydir,
Shundan O'zbek kelyapti,-deya sevinar jahon,
Ey Yangi O'zbekiston, ey Yangi O'zbekiston!

Sportdagi marrami, maktabdanmi yozayin,
Har sohada yuksalish, jahoniy bir dizayn,
Yoshlar asl drayver, ma'rifati – onlayn,
O'ttiz to'rt yosh – tarixda shingil yoshdir, navqiron,
Ey Yangi O'zbekiston, ey Yangi O'zbekiston!

Zakovatli zukkolar ta'rifini madh etdim,
Imonim but, goh Qur'on oyatini sharh etdim,
Oxirgi to'qqiz yilda to'qson yil olg'a ketdim,
Erishgan har g'alabang o'ylab, tanda jo'shar qon,
Ey Yangi O'zbekiston, ey Yangi O'zbekiston!

Tongi tarovat ila yuz ochgan ul bog'laring,
Klasterlar rizq tergan unumdor tuproqlaring,
Har yurakka yog'gan ul mehrli chiroqlaring –
Ming asrlar o'tsa-da, so'nish bilmas begumon,
Ey Yangi O'zbekiston, ey Yangi O'zbekiston!

Nurafshon bu kunlaring poydor bo'lsin iloho,
Har fasling yashnaguvchi bahor bo'lsin, iloho,
Ikromjon nazmu mehri tumor bo'lsin, iloho,
Qasidamni qabul et, ozod Vatan, Onajon –
Ey Yangi O'zbekiston, ey Yangi O'zbekiston!


Ikromjon ASLIY-ANDIJONIY,
O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a'zosi, shoir.

«KORRUPSIYASIZ JAMIYAT – TARAQQIYOT KAFOLATI
O‘zbekiston Oliy Majlisi huzuridagi Fuqarolik jamiyati institutlarini qo‘llab-quvvatlash jamoat fondi tomonidan moliyalashtirilgan «Adolat mezoni» gazetasining «Korrupsiyasiz jamiyat - taraqqiyot kafolati» loyihasi doirasidagi sahifa

MAKTAB DIREKTORI

«TUYA YO‘Q BO‘LSA, ECHKI HAM HARNA» DEGANDI...

Elyor Tohirjonov mana, qariyb olti yildirki, tumanlardan birida maktab direktori lavozimida ishlab kelardi. Binoyidek faoliyat olib borayotgan, kuyib-pishib ishlayotgan navqiron rahbarni negadir, kutilmaganda nafs qutqusi yo‘ldan ozdirdi. Natijada, qonunbuzilish sodir etildi. Ayrimlarning, aytish mumkinki, aksari odamlarning, tanish-bilish, do‘stu yorlarning u haqidagi toza fikriga qum qo‘shildi. Dilxiralik oraladi.



Hammasi maktab jismoniy tarbiya fani o‘qituvchisi Akmal Isroilovning o‘z hisobidan uch oylik ta’tilga chiqishi rejasidan boshlandi. O‘quvchilariga aytgani, “sizlarga endi boshqa opa dars o‘tib turadi”, degani sabab, bolalar orasida ham “jismon o‘qituvchimiz endi kelmas ekan-da, endi kim ustozlik qilarkin”, degan haqli qiziqish-savollar o‘rtaga chiqa boshladi. Direktor Akmaljon ustozning ikki soat darsini bu gap paydo bo‘lganidayoq ko‘zlab yurgani – Sobira ismli ayolga olib beradigan bo‘lib qoldi. Qolgan to‘rt soati Nasibaxon Aralovaga beriladigan bo‘ldi. Biroq, direktor o‘zim xon, ko‘lankam maydon, qabilida ish tutib, bu ish evaziga, har ikki ustozdan (aslida, opa-singildan) pul talab qila boshladi. Havodan tushadigan 100 AQSH dollari!

Ustasi farangroq ekanmi, direktor o‘qituvchilarni pul berishga osongina, xamirdan qil sug‘urgandek ko‘ndirdi-qo‘ydi. Yana, deng, ularning rozilik arizalarini ham olib ulgurdi. Faqat, ish – direktorning murodi chalaroq hosil bo‘ladigan bo‘ldi – opa-singillar o‘zlarida buncha pul yo‘qligini aytishdi. Direktor “yumshadi” – o‘zbek so‘mida bir million bersalar, kifoya! (Nachora, tuya yo‘q bo‘lsa, echki ham harna-da!)

- Ikkingiz ovora bo‘lib yurmay, bir qilib berib qo‘yaqolinglar, - dedi qarshisidagi muloyim o‘qituvchiga, direktor, uning arizasini yozdirib bo‘lgach. Men, buyruqni tezda chiqaraman, darsni o‘taverasizlar, ko‘ngillarni xotirjam qiling, Nasibaxonga ham ayting, Akmal uch oy, dedi-yu, u uzoqqa ketyapti, ishlagani, shuning uchun, u, sentyabrda ham kelmasa kerak, axir, Krasnodar hazilakam yermi?!

- Xo‘p, rahmat, - dedi Sobira Muqiminova.

Albatta, jamoa orasida, o‘zaro muloqotlarda har kimning, ayniqsa, rahbarning xatti-harakatlari, o‘zini tutishi, hamkasblarning fe’l-atvori va turmushidagi o‘zgarishlar muhokama qilinadi, tahlil etiladi. Binobarin, Nasibaxon ham hamkasbiga yuqoridagi holat bo‘yicha gap chiqqanida, “Akmal o‘zi ishlayvermabdi, uning o‘quvchilari ancha to‘polonchi edi, bizlarga ko‘nib-ko‘nikarmikan”, deb qoldi.

- Kim bilsin... Amallaymiz.

Gap aylanib borib, direktor so‘rayotgan bir millionga borib taqaldi. Bu qanchalik qonuniy?! Aslida-ku, bu muallimalar birovning darsini olib ber, deganlari ham yo‘q. Shunday ekan, bu yaxshilikmi yo yomonlik?! O‘y ko‘p, mulohaza qator, jo‘yali javob esa, qish kunidagi quyoshdek hadeganda yuz ko‘rsatavermasdi...

Baribir, rahbarning gapi gap, qolaversa, rozilik arizasi ham yozib bo‘lindi. Ularni hech kim majburlagani ham yo‘q, o‘zlari darrov qo‘l qo‘yib beraqolishdi. O‘zi ko‘pincha shunaqa bo‘ladi: bir ish qilib qo‘yiladi-da, keyin shuni qilmasam bo‘larkan degan o‘y kishini tark etmay ketadi. Yursa ham, tursa ham, shu o‘y uni tegrasida aylanaveradi-aylanaveradi...

- Shu direktor hech pulga to‘ymadi-da, dedi Nasiba, - so‘ragani-so‘ragan-a...

- Qo‘yavering, - dedi hamkasbi.

Direktor o‘zining qilayotgan g‘ayriqonuniy so‘rovi uchun go‘yo vijdoni oldida javob ham tayyorlab qo‘ydi: “O‘zimga so‘rayapmanmi bu bir millionni, maktab oldini – kiraverishni obodonlashtirish, rayhon gullari ekish uchun ishlatamiz. Bir so‘mi ham cho‘ntakka tushmaydi uni!”...

Buni puxta qilib, o‘z o‘rinbosariga ham aytdi u, go‘yo, har ikki o‘qituvchi o‘sha bir million so‘m berish orqali, maktabga homiylik qilgan bo‘ladi. Koni savob-ku bu! Tushuntirib qo‘ying shuni, dedi.

Joriy yil aprelida boshqa bir umumiy o‘rta ta’lim maktabiga sport musobaqasiga boradigan bo‘lishdi. Musobaqa ko‘tarinki ruhda o‘tdi. Ayniqsa, bolajonlarning quvonchi cheksiz edi, ular o‘zlariga berilgan “Faxriy yorliq” va sovg‘alarni o‘zgacha g‘urur bilan ko‘tarib turishardi. Shu choqda, “Ketamiz-ketamiz” degan sadolar yangrab qoldi. Har bir maktab rahbari va ustoz-murabbiylari o‘z o‘quvchilarini belgilangan “Damas” yengil avtomashinasiga chiqara boshlashdi. Shu asnoda, direktor Sobirani chetga tortdi va pulni so‘radi.

Olingan bir million direktor ko‘zlagan maqsadlar uchun ishlatilib ulgurolmadi - u shu kuni, voqea joyining o‘zida ashyoviy dalillar bilan qo‘lga olindi. Direktor gul deb tikan bosganini angladi, balki, ammo, endi juda kech, g‘isht allaqachon qolipdan ko‘chgan edi. Uning g‘ayriqonuniy qilmishi jinoyat ishlari bo‘yicha Andijon tuman sudining yaqinda bo‘lib o‘tgan navbatdagi majlisida ko‘rib chiqildi. O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksini tegishli moddalari bandlarida ko‘rsatilgan qilmishni sodir etgan ta’lim muassasi rahbari xatti-harakatlari uchun qonun hukmi, sud xulosasiga ko‘ra, ikki yil moddiy javobgarligi bor mansab vazifalarida ishlash huquqidan mahrum qilinib, 3 yil muddatga qamoq jazosiga tortildi. Ana shu tariqa, poraxo‘rlikning oxiri voyligi yana bir bora hayotiy tasdig‘ini topdi.

Dilbarxon ABDUMAJIDOVA,
“Adolat mezoni” muxbiri.

“QORA QOG‘OZ USTIDAGI CHUMOLINI HAM ILG‘ASHI”NI HALOL YO‘LGA ISHLATMAGACH...

MARHAMATLIK FUQARO ALISHER MIRVOHIDOVNING BIR GEKTAR YERI BO‘LIB, U BOG‘DORCHILIKKA IXTISOSLASHGANI BOIS, YER MAYDONIDA TURLI MEVA VA GUL KO‘CHATLARI BARQ URIB O‘SIB YOTARDI. YASHNAB TURGAN CHAMANZOR ALBATTA, O‘TGAN-KETGANNING E’TIBORINI TORTMAY QOLMAYDI: BIROV HAVAS BILAN QARAYDI, BIROV – HASAD BILAN! RESPUBLIKA KADASTR AGENTLIGI TUMAN BO‘LIMI BOSHLIG‘I TO‘XTAMUROD TAQABOYEV HAM BU BOG‘GA NAZAR SOLDI. O‘TKIR KO‘Z QORA QOG‘OZ USTIDAGI CHUMOLINI HAM ILG‘AYDI – KADASTR BOSHLIG‘I DASTLAB BOG‘BON-SOHIBKOR QURIB OLGAN BOG‘ CHETIDAGI INSHOOTGA DIQQAT QARATDI: QONUNIYMIKAN, NOQONUNIYMIKAN?! ALBATTA, U BUNI BILARDI, BILARDI-YU, AMMO...

“Yana o‘n yetti sotix yerni band qilib turibdi bu qurilma... Surishtirish kerak... Bu yerda bir gap bor-ov...”

Boshliqning miyasida shunga o‘xshash fikrlar aylana boshladi.

Albatta, To‘xtamurod bu yerni rahmatli otasi Shakar buvaning maslahati va tavsiyasi, qisman moliyaviy sarmoyasi evaziga kimoshdi savdosidan tom ma’noda qonuniy sotib olgandi. Shundan beri, bog‘ ham bola-chaqasining, ham o‘zgalarning koriga yarab turardi. Xudoga shukur, shu bog‘ bor ekan, dadasi aytmoqchi, ro‘zg‘orida qo‘r, baraka bor... Manglay bog‘lab, tuproq kechganlari o‘z samarasini berdi. Suv ham, xayriyatki, tanqis emas, shundoq bog‘ naryog‘idan katta tashlama oqib o‘tadi.

Yillar oralab, bog‘bon bog‘ chetiga jami 4 xona uy qurib oldi. Aynan, bog‘ga kelgan kadastr tuman bo‘limi boshlig‘i mazkur qurilmalarni noqonuniy ekanini aytdi.

- Buzasiz, vassalom! Bu, qonunga teskari ish!, - dedi u. To‘xtamurod, bu qurilmalarni rasmiylashtirish, maxsus “Uzcosmos”, “E-YER-NAZORAT” kabi avtomatlashtirilgan dasturlarda har bir inshoot, qurilma ko‘rsatilishi kerakligini aytdi.

Bog‘bon-ku, buni tushundi, tushunmay o‘libdimi, naqd to‘rt yil sobiq Paxtachilik instituti tuprog‘ini yalagan, yosh bola ham emas, ammo, ne qilsinki, bu uylarni tiklaguncha, ketgan mablag‘ning xomcho‘ti bir o‘zi-yu, bir Xudoga ayon! Shunday ekan, o‘zingizdan qolar gap yo‘q, birov shart kelib, “Buz-buz!”, qilsa, u, bir g‘isht emaski, u yerdan bu yerga siljitib qo‘yaverilsa... eh-heyee...

To‘xtamurod noqonuniy qurilma uchun prokuratura organlariga xabar yuborishi, 300 million so‘m jarima solishi va boshqalar haqida aytib ketdi. Bog‘bon qalbida sarosima paydo bo‘ldi: nima qilish kerak?! Qanday qilsa, hammasi qonuniy bo‘ladi?! Eh, o‘zi shu uyni nimagayam qurdim?!...

Tarvuzi qo‘ltig‘idan tushib, shu kuni Alisher To‘xtamurodning kabinetiga kirib bordi. “Qurilmamni qonuniy tartibda rasmiylashtirib bering”, deb o‘tindi. Har holda, bu unga yuqorida aytilgan va To‘xtamurodning og‘zi bir chetidan chiqqan jaraq-jaraq pul sarfidan arzonroq tushadigandek, shu bilan ko‘ngli taskin topadigandek tuyulib ketdi.

Kadastr agentligi boshlig‘ining xayolida esa, boshqa narsa, boshqa o‘y aylanardi. U, hozir o‘zini o‘ljasi qarshisida turgan ovchidek his etardi...

- Sizga bir yaxshilik qilaman, - dedi nihoyat, To‘xtamurod Taqaboyev tilga kirib, - shunday qilamizki, six ham kuymaydi, kabob ham. Ya’ni, men, aytgan hujjatlaringizni ham qilib beraman, sudga, prokuraturalarga ham sizni yugurtirib, xabarnoma, dalolatnoma degan qog‘ozlar jo‘natmayman, kelgusida siz aytgandek, o‘zingizga o‘sha 22 sotix yerdagi qurilmalarni rasmiylashtirib beraman. Faqat, buning ozgina chiqimi bor – 6000 dollar berasiz...

Alisher ko‘ndi. Ko‘nmay iloji qancha...

- Tezroq keltirib bering, qancha tez opkebersangiz, ish shuncha tez bitadi, - sha’ma qildi To‘xtamurod Taqaboyev. - O‘ylab ko‘ring... Tezlashing...

Olti ming AQSH dollari...

Ozmunchami bu!

Aytmoqqagina oson. Ammo, bog‘bonning do‘ppisi hozir tor kelib turgandi. Bu zamonda, qonunning aytganini qilmasang, yana bo‘lmasa... Kadastr boshlig‘i ham bir nimani bilmasa, ishonmasa, gapirarmidi?! Shunday bo‘lgach...

Oradan ko‘p o‘tmadi. Aytilgan kuni, belgilangan muddatda To‘xtamurod Taqaboyevning xizmat xonasi eshigi taqilladi.

- Kiravering, - dedi To‘xtamurod Taqaboyev, chehrasi allanechuk ochilib. U soniyalar ichida kaftida paydo bo‘ladigan mablag‘ni o‘ylardi, quvonardi, o‘zida yo‘q shod edi...

- Opkeldim, - dedi bog‘bon, bir bog‘lab xorij valyutasini stol tepasiga qo‘yarkan. To‘xtamurod Taqaboyev uni tezda oldi-yu, ish stoli tortmasiga tashladi. Hujjatlarni tezda rasmiylashtirishini, viloyatga ham bu masalada ancha avval “ship-shitib” qo‘yganini ta’kidladi.

- Umringizdan baraka toping, - dedi bog‘bon va xonadan chiqib ketdi. Shu payt, ajabki, xonaga boshqa – chaqirilmagan va kutilmagan mehmonlar kirib kelishdi va o‘zlarining xizmat guvohnomalarini ko‘rsatib, shaxsini tanishtirishdi. Ana shu tariqa, To‘xtamurod Taqaboyevning oldi-berdi savdosiga nuqta qo‘yiladigan bo‘ldi.

Jinoyat ishlari bo‘yicha Marhamat tuman sudida yaqinda bo‘lib o‘tgan sud majlisida mana shu masala ko‘rib chiqildi va poraxo‘r mansabdorning yuqoridagi ishlariga qonuniy baho berildi. O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksini tegishli moddalari bandlarida ko‘rsatilgan qilmishni sodir etgan To‘xtamurod Taqaboyev sud hukmiga ko‘ra, 2 yil Kadastr ishlari tizimida ishlash vakolatidan mahrum qilinib, 5 yil ozodlikdan mahrum qilish jazosiga tortildi. Jazoni umumiy tartibli koloniyalarda o‘tattirilishi belgilandi.

Ikromjon MANSUROV,
jurnalist.

Munosabat

SHHT – “Yashil” energetika, iqlim o‘zgarishiga qarshi choralar, ekologik xavfsizlik va resurslardan oqilona foydalanish istiqbollari

Pekin shahrida o‘tkazilgan Shanxay hamkorlik tashkilotining sammitida Davlatimiz rahbari tomonidan o‘tgan yillar davomida ikki tomonlama munosabatlar rivojida katta yutuqlarga erishilgani ta’kidlanib, barcha darajalardagi aloqalar sur’ati ortib borayotgani, siyosiy muloqot mustahkamlanib, muhim masalalar yuzasidan tomonlar bir-birini qo‘llab-quvvatlayotgani alohida mamnuniyat bilan qayd etildi.



Darhaqiqat, barcha sohalar qatorida “yashil” energetika va energiya samaradorligini oshirish, raqamlashtirish, shuningdek, kimyo, suv va qishloq xo‘jaligi, turizm va shaharsozlik yo‘nalishlarida istiqbolli loyihalar ishlab chiqilayotgani, elektromobillar ishlab chiqarish kengaytirilayotgani ham diqqatga sazovordir.

Shu bilan birga, SHHTning “yashil” transformatsiya sohasidagi hamkorligini kengaytirish, Xitoy tomonining tashabbusi bilan “Yashil sanoat” sohasida hamkorlik to‘g‘risidagi bayonot o‘z vaqtida qabul qilinayotgani, iqlim o‘zgarishiga moslashish, havoga zararli gazlar chiqarilishini kamaytirish, ekologik xavf-xatarlarni bashorat qilish uchun sun’iy intellekt texnologiyalarini joriy etish masalalari bo‘yicha mintaqaviy platformani ishga tushirish zarurligi alohida e’tirof etildi.

Tianjin deklaratsiyasi va SHHTni 2035-yilgacha rivojlantirish strategiyasi doirasida “yashil rivojlanish” ustuvor yo‘nalish sifatida belgilangani O‘zbekiston tashabbuslari samarasi sifatida qaralmoqda. Bu xalqaro miqyosdagi ekologik hamkorlikni yanada chuqurlashtirish uchun mustahkam huquqiy va siyosiy poydevor hisoblanadi.

O‘zbekiston Ekologik partiyasi vakillari va partiyaning ko‘p sonli a’zolari ushbu tashabbuslarni doimo qo‘llab-quvvatlagan holda, hamkor tashkilotlar va jamoatchilikni jalb etgan tarzda faol ishtirok etadi.

Xurshidbek YUSUPOV,
O‘zbekiston Ekologik partiyasi Andijon viloyat Kengashi raisi.

O‘zbekistonda fuqarolik jamiyati faoliyatini tartibga soluvchi qonunchilikka muhim o‘zgarishlar kiritildi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 2025-yil 21-avgustda “O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga qo‘shimcha va o‘zgartirishlar kiritish to‘g‘risida”gi Qonun imzolandi. Hujjat shu yilning 15-aprelida Qonunchilik palatasi tomonidan qabul qilingan va 30-aprelda Senat tomonidan ma’qullangan edi.



NNT FAOLIYATIGA QONUNGA XILOF RAVISHDA ARALASHGANLIK UCHUN JAVOBGARLIK BELGILANDI

Mazkur qonunning asosiy maqsadi nodavlat notijorat tashkilotlari (NNT) faoliyatini qo‘llab-quvvatlash, jamoatchilik nazoratini kuchaytirish va ijtimoiy sheriklikni rivojlantirishdan iborat.

Qonunga ko‘ra bir qator yangiliklar joriy etilmoqda:

Mansabdor shaxslarning javobgarligi oshirilmoqda. Endilikda NNTlar faoliyatiga noqonuniy aralashgan davlat organlari xodimlariga bazaviy hisoblash miqdorining yetti baravaridan o‘n baravarigacha jarima solinadi. Shuningdek, jamoatchilik nazorati natijalari bo‘yicha tayyorlangan hujjatni ko‘rib chiqmaganlik uchun ham alohida jarima belgilandi.

Homiylik faoliyati tartibga solinmoqda. Xayriya mablag‘larini yig‘ish, jumladan, maxsus xayriya qutilaridan foydalanish tartibi aniq belgilab berildi.

Jamoat fondlari uchun yengillik yaratilmoqda. Bir kalendar yil davomida bank hisobvaraqlarida pul aylanmasi bo‘lmagan jamoat fondlari uchun majburiy auditorlik tekshiruvi ixtiyoriy etib belgilandi.

Ijtimoiy sheriklik mexanizmlari takomillashtirilmoqda. Davlat organlari tomonidan fuqarolik jamiyati institutlariga bevosita davlat ijtimoiy buyurtmalarini berishning yangi mexanizmlari joriy qilindi.

Kiritilgan o‘zgarishlar orasida Nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyatiga noqonuniy aralashganlik uchun javobgarlikning kiritilishini alohida ta’kidlash lozim. Bu O‘zbekiston Respublikasining Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksiga qo‘shilgan yangi 197^8-modda bilan mustahkamlandi.

Avvallari qonunchilikda davlat organlari mansabdor shaxslarining NNTlar faoliyatiga asossiz aralashuvi uchun to‘g‘ridan to‘g‘ri ma’muriy jazo chorasi aniq belgilanmagan edi. Bu holat NNTlarning mustaqil faoliyat yuritishida qiyinchiliklar tug‘dirishi mumkin edi.

Yangi normaga ko‘ra, endi davlat organining mansabdor shaxsi NNT faoliyatiga qonunga xilof ravishda aralashsa, bu huquqbuzarlik deb topiladi va unga nisbatan aniq jazo qo‘llaniladi. Jumladan:

Birinchi marta sodir etilgan bunday huquqbuzarlik uchun bazaviy hisoblash miqdorining yetti baravaridan o‘n baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo‘ladi.

Agar ushbu harakat ma’muriy jazo qo‘llanilganidan keyin bir yil davomida takroran sodir etilsa, jarima miqdori yanada oshirilib, bazaviy hisoblash miqdorining o‘n baravaridan o‘n besh baravarigacha miqdorni tashkil etadi.

Bu o‘zgarish fuqarolik jamiyati institutlarining huquqiy himoyasini kuchaytirish, ularning faoliyatiga davlat organlari tomonidan bo‘ladigan asossiz aralashuvlarning oldini olish va NNTlarning qonuniy faoliyatini erkin amalga oshirishi uchun qo‘shimcha kafolat yaratadi.

Maxmudjon NABIYEV,
«Madaniy mehnat chashmasi» NNT raisi.

МЕРОСХЎРЛАР ДИҚҚАТИГА!

Андижон шаҳрида яшаб, 2024 йил 13 декабрь куни вафот этган марҳум **МАХАМАДАЛИЕВ ИСКАНДАРБЕК МУЗАФФАР ЎҒЛИ**нинг мерос мулкларига нисбатан мерос иши очилаётганлиги сабабли марҳумнинг меросхўрлари ва манфаатдор шахсларни эълон чиққан кундан бошлаб, 1 (бир) ой муддат ичида тегишли ҳужжатлари билан Андижон шаҳри, А.Темур шоҳкўчаси, 35/А-уйда жойлашган хусусий амалиёт билан шуғулланувчи нотариус Д.А.Абдусаломова нотариал идорасига,

Андижон шаҳрида яшаб, 2021 йил 30 декабрь куни вафот этган марҳум **БОЙМИРЗАЕВ НОЗИМ**нинг мерос мулкларига нисбатан мерос иши очилаётганлиги сабабли марҳумнинг меросхўрлари ва манфаатдор шахсларни эълон чиққан кундан бошлаб, 1 (бир) ой муддат ичида тегишли ҳужжатлари билан Андижон шаҳри, Бобур шоҳкўчаси, 30/А-уйда жойлашган хусусий амалиёт билан шуғулланувчи нотариус И.А.Узакбаев нотариал идорасига,

Хонобод шаҳар, Мустақиллик МФЙ, Обод кўчаси, 135-уй, 1-хонадонда яшаб, 2024 йил 2 март куни вафот этган марҳум **TUXTANAZAROVA NASIBAXON ABDURAXIMOVNA**нинг мерос мулкларига нисбатан мерос иши очилаётганлиги сабабли марҳумларнинг меросхўрлари ва манфаатдор шахсларни эълон чиққан кундан бошлаб, 1 (бир) ой муддат ичида тегишли ҳужжатлари билан Хонобод шаҳри, Обод кўчаси, 134-уйда жойлашган хусусий амалиёт билан шуғулланувчи нотариус А.Н.Зулунов нотариал идорасига,

Жалақудуқ туманидаги уйда яшаб, 2023 йил 19 июнь куни вафот этган марҳум **JIYANBAYEV SHAMSUTDIN,**

Жалақудуқ туманидаги уйда яшаб, 2025 йил 25 февраль куни вафот этган марҳум **XUSANOV XURSANDBEK ADILOVICH,**

Жалақудуқ туманидаги уйда яшаб, 2023 йил 12 август куни вафот этган марҳум **ABDULLAYEV KADIRJON ABIDJANOVICH**ларнинг мерос мулкларига нисбатан мерос иши очилаётганлиги сабабли марҳумларнинг меросхўрлари ва манфаатдор шахсларни эълон чиққан кундан бошлаб, 1 (бир) ой муддат ичида тегишли ҳужжатлари билан Жалақудуқ тумани, Ўзбекистон кўчаси 57-уйда жойлашган хусусий амалиёт билан шуғулланувчи нотариус Ф.Н.Акбаров нотариал идорасига,

Жалақудуқ туманидаги уйда яшаб, 2025 йил 25 февраль куни вафот этган марҳум **MAMADALIYEV MAMASODIQ TURDIMURATOVICH,**

Жалақудуқ туманидаги уйда яшаб, 2021 йил 7 август куни вафот этган марҳум **BOYKUZIYEVA SHAXZODAXON NIZAMITDINOVNA,**

Жалақудуқ туманидаги уйда яшаб, 2022 йил 26 декабрь куни вафот этган марҳум **XAYDAROVA INABATXON SHAROBIDDINOVNA**ларнинг мерос мулкларига нисбатан мерос иши очилаётганлиги сабабли марҳумларнинг меросхўрлари ва манфаатдор шахсларни эълон чиққан кундан бошлаб, 1 (бир) ой муддат ичида тегишли ҳужжатлари билан Жалақудуқ тумани, Ўзбекистон кўчаси 57-уйда жойлашган хусусий амалиёт билан шуғулланувчи нотариус Ш.Ю.Рахимов нотариал идорасига,

Избоскан тумани, Узун кўча МФЙ, Мадраса кўчасидаги уйда яшаб, 2003 йил 23 июнь куни вафот этган марҳум **ТАДЖИБАЕВА КУНДУЗХОН ХХХ**нинг мерос мулкларига нисбатан мерос иши очилаётганлиги сабабли марҳумларнинг меросхўрлари ва манфаатдор шахсларни эълон чиққан кундан бошлаб, 1 (бир) ой муддат ичида тегишли ҳужжатлари билан Избоскан тумани, Нақшбанд кўчасида жойлашган хусусий амалиёт билан шуғулланувчи нотариус С.К.Ботиров нотариал идорасига,

Марҳамат тумани, Ғофур Ғулом МФЙ, Марғилоний кўчасидаги уйда яшаб, 2024 йил 20 декабрь куни вафот этган марҳум **ХОМИДОВ АНВАРЖОН КОМИЛОВИЧ,**

Марҳамат тумани, Алитепа МФЙ, Деҳқонобод кўчасидаги уйда яшаб, 2025 йил 18 январь куни вафот этган марҳум **КОСИМОВА ХАМИДА,**

Марҳамат тумани, Наврўз МФЙ, Истиқбол кўчасидаги уйда яшаб, 2024 йил 18 июль куни вафот этган марҳум **ИСАКОВ АБДУНАЗАР**нинг нинг мерос мулкларига нисбатан мерос иши очилаётганлиги сабабли марҳумнинг меросхўрлари ва манфаатдор шахсларни эълон чиққан кундан бошлаб, 1 (бир) ой муддат ичида тегишли ҳужжатлари билан Марҳамат тумани, Бобур шоҳкўчаси, 38-уйда жойлашган хусусий амалиёт билан шуғулланувчи нотариус А.Т.Усмонов нотариал идорасига,

Олтинкўл тумани, Ўртаариқ маҳалласидаги уйда яшаб, 2021 йил 8 октябрь куни вафот этган марҳум **ЮЛДАШЕВ САДРИДДИН ПОЗИЛОВИЧ**нинг мерос мулкларига нисбатан мерос иши очилаётганлиги сабабли марҳумнинг меросхўрлари ва манфаатдор шахсларни эълон чиққан кундан бошлаб, 1 (бир) ой муддат ичида тегишли ҳужжатлари билан Олтинкўл тумани, Марказ МФЙ, Олтин соҳил кўчасида жойлашган хусусий амалиёт билан шуғулланувчи нотариус Б.К.Бердибеков нотариал идорасига мурожаат қилишлари сўралади.

Пахтаобод туманидаги уйда яшаб, 2010 йил 2 март куни вафот этган марҳум **РАХМАНОВ МАХКАМБОЙ,**

Пахтаобод туманидаги уйда яшаб, 2009 йил 29 апрель куни вафот этган марҳум **ХУЖАМБЕРДИЕВА МУКАРАМХОН**ларнинг мерос мулкларига нисбатан мерос иши очилаётганлиги сабабли марҳумнинг меросхўрлари ва манфаатдор шахсларни эълон чиққан кундан бошлаб, 1 (бир) ой муддат ичида тегишли ҳужжатлари билан Пахтаобод тумани, Муаззинбой МФЙ, Олтин йўл кўчасида жойлашган хусусий амалиёт билан шуғулланувчи нотариус Х.А.Рахмонов нотариал идорасига,

Пахтаобод тумани, Дурдиёр маҳалласидаги уйда яшаб, 2024 йил 19 декабрь куни вафот этган марҳум **ЗАКИРОВ РУЗИБАЙ**нинг ларнинг мерос мулкларига нисбатан мерос иши очилаётганлиги сабабли марҳумнинг меросхўрлари ва манфаатдор шахсларни эълон чиққан кундан бошлаб, 1 (бир) ой муддат ичида тегишли ҳужжатлари билан Пахтаобод тумани, Озод диёр кўчасида жойлашган хусусий амалиёт билан шуғулланувчи нотариус М.Ў.Тўйчибоев нотариал идорасига,

Шаҳрихон тумани, Вахим МФЙда яшаб, 2025 йил 19 февралда вафот этган марҳум **MO‘SAJON NISHONOV,**

Шаҳрихон тумани, Қўрғонча МФЙда яшаб, 2024 йил 26 декабрда вафот этган марҳум **ODINA KAMOLDINOVNA QOSIMOVA,**

Шаҳрихон тумани, Қозиқўрғон МФЙда яшаб, 2024 йил 22 мартда вафот этган марҳум **АБДУВОСИ ВАХОБОВ,**

Шаҳрихон тумани, Чўжа МФЙда яшаб, 1995 йил 9 октябрда вафот этган марҳум **ЭРГАШБОЙ ИМИНОВ**ларнинг мерос мулкларига нисбатан мерос иши очилаётганлиги сабабли марҳумларнинг меросхўрлари ва манфаатдор шахсларни эълон чиққан кундан бошлаб, тегишли ҳужжатлари билан Шаҳрихон тумани, Р.Ёдгоров кўчасида жойлашган хусусий амалиёт билан шуғулланувчи нотариус А.Ахмаджонов нотариал идорасига,

Шаҳрихон тумани, Карнайчи МФЙда яшаб, 2021 йил 15 апрелда вафот этган марҳум **MIRZAABDULLA ABDIJABOROV**нинг мерос мулкларига нисбатан мерос иши очилаётганлиги сабабли марҳумнинг меросхўрлари ва манфаатдор шахсларни эълон чиққан кундан бошлаб, тегишли ҳужжатлари билан Шаҳрихон тумани, Р.Ёдгоров кўчасида жойлашган хусусий амалиёт билан шуғулланувчи нотариус А.Маматов нотариал идорасига,

Шаҳрихон тумани, Абдусамад МФЙ, Р.Ёдгоров кўчасида яшаб, 2023 йил 16 декабрда вафот этган марҳум **ASAN SERVEROVICH ABLAYEV,**

Шаҳрихон тумани, Мустақиллик МФЙ, Кичикбеков кўчасида яшаб, 2023 йил 9 июлда вафот этган марҳум **НУРИЛЛО ҒОФУРЖОН ЎҒЛИ СОДИҚОВ**ларнинг мерос мулкларига нисбатан мерос иши очилаётганлиги сабабли марҳумларнинг меросхўрлари ва манфаатдор шахсларни эълон чиққан кундан бошлаб, 1 ой муддат ичида тегишли ҳужжатлари билан Шаҳрихон тумани, Хамза кўчаси, 2-уй, 4-квартирада жойлашган хусусий амалиёт билан шуғулланувчи нотариус Б.Мўйдинов нотариал идорасига мурожаат қилишлари сўралади.

OZIQ-OVQAT MAHSULOTLARI XAVFSIZLIGI YO‘LIDA



Andijon viloyati IIB PPX va JTSB karantin tadbirlarini ta’minlash guruhi hamda qator mutasaddi tashkilotlar bilan hamkorlikda viloyatning shahar-tumanlarida faoliyat ko‘rsatayotgan oziq-ovqat bozorlari va ularning shoxobchalarida jamoat tartibini saqlash, fuqarolar xavfsizligi hamda veterinariya-sanitariya qoidalari normalariga amal qilinishini ta’minlash maqsadida qator ishlar amalga oshirilmoqda.

Xususan, viloyat veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish boshqarmasi hamda boshqa mutasaddi idora xodimlari bilan hamkorlikda keng qamrovli profilaktik tushuntirish ishlar amalga oshirilib kelinmoqda.

Navbatdagi tadbir Andijon shahridagi “Markaziy dehqon bozori” hamda hayvonot bozorida o‘tkazildi. Unda aholi dasturxoniga sifatli oziq-ovqat mahsulotlarini yetkazib berilishini ta’minlash va hayvonlar o‘rtasida insonlarga yuqishi mumkin bo‘lgan yuqumli kasalliklarni oldini olish, oziq-ovqat xavfsizligini nazorat qilish, epizootik va epidemik vaziyatni barqarorligini ta’minlash asosiy e’tiborini go‘sht va go‘sht, sut va sut mahsulotlariga qaratish maqsadida keng qamrovli profilaktik tushuntirish ishlari olib borildi.

O‘tkazilgan nazorat tadbiri davomida tadbirkorlar tomonidan fuqarolarga sifatsiz va iste’molga yaroqsiz mahsulotlarni sotmaslik, fuqarolarga sifatli xizmat ko‘rsatish to‘g‘risida targ‘ibot-tashviqot ishlari olib borildi.

Andijon viloyatining barcha shahar-tumanlarida joylashgan bozorlarda sifatsiz oziq-ovqat mahsulotlarini fuqarolarga sotilishini oldini olishga qaratilgan profilaktik tadbirlar davom ettirilmoqda.

Jasurbek QO‘LDASHEV,
Andijon viloyati IIB JXX JTSB
Karantin tadbirlarini ta’minlash
guruhi xodimi, safdor.

SUD FAOLIYATIGA SUN’IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARINI JORIY ETISH ORQALI ODIL SUDLOVGA ERISHISH DARAJASINI OSHIRISH HAMDA SUD TIZIMINING MODDIY-TEXNIK TA’MINOTINI YAXSHILASHGA DOIR CHORA-TADBIRLAR

Zamonaviy axborot texnologiyalari va sun’iy intellekt tizimlarining rivojlanishi jamiyat hayotining barcha sohalariga, shu jumladan davlat boshqaruvi va sud tizimiga ham chuqur kirib bormoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 21-avgustdagi Farmoni sud tizimini zamonaviy texnologiyalar bilan jihozlash, uni raqamlashtirishning yangi bosqichini boshlab berdi. Mazkur hujjatda sudlar faoliyatiga sun’iy intellekt texnologiyalarini joriy etish hamda raqamlashtirish jarayonlarini jadallashtirishning ustuvor maqsadlari belgilangan bo‘lib, “Raqamli sud” konsepsiyasini amalga oshirishning asosiy yo‘nalishlari ko‘rsatilgan. Bu tub islohotlar sud ishlarini yuritishda qog‘oz shaklidan voz kechish, sun’iy intellekt texnologiyalarini qo‘llash orqali sud qarorlarining sifatini oshirish va sud jarayonlarining tezkorligini ta’minlashga qaratilgan.



Sud tizimida sun’iy intellekt texnologiyalarini joriy etish jarayoni nafaqat texnik, balki huquqiy, etik va ijtimoiy jihatlarni ham qamrab oladi. Sud tizimida sun’iy intellekt texnologiyalarini qo‘llashning huquqiy asoslarini, xalqaro standartlarini va O‘zbekiston sharoitida samarali joriy etish yo‘llarini tadqiq etish muhim ahamiyat kasb etadi. Xususan, sun’iy intellekt texnologiyalarining sud tizimiga joriy etilishi odil sudlovga erishish darajasini qay tarzda oshirishi, insoniy huquqlar va erkinliklarning qanday ta’minlanishi, shuningdek, bu jarayonda qanday muammolar yuzaga kelishi mumkinligini aniqlash va ularni bartaraf etish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqish dolzarb masaladir.

Xalqaro miqyosda ham sud tizimida sun’iy intellekt texnologiyalarini qo‘llashning huquqiy va etik asoslari shakllantirilmoqda. Xususan, Yevropa Kengashining Sud Tizimining Samaradorligi bo‘yicha Komissiyasi (CEPEJ) tomonidan 2018-yilda qabul qilingan “Yevropa Etik Xartiyasi: sud tizimlarida sun’iy intellektdan foydalanish to‘g‘risida”gi hujjat sud tizimida sun’iy intellekt texnologiyalarini qo‘llashning asosiy tamoyillarini belgilab berdi. Shuningdek, YUNESKO tomonidan qabul qilingan “Sun’iy intellekt etikasi bo‘yicha tavsiya” ham insoniy huquqlarni himoya qilish va sun’iy intellekt texnologiyalarini axloqiy tartibga solish masalalarini qamrab oladi.

O‘zbekiston Respublikasida sud tizimida sun’iy intellekt texnologiyalarini joriy etishning huquqiy asoslari quyidagi me’yoriy-huquqiy hujjatlar bilan belgilangan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 21-avgustdagi “Sudlar faoliyatiga sun’iy intellekt texnologiyalarini joriy etish orqali odil sudlovga erishish darajasini oshirish hamda sud tizimining moddiy-texnik ta’minotini yaxshilashga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Farmonini alohida ta’kidlash lozim.

Farmonga ko‘ra, 2025-yil 1-dekabrdan fuqarolar, advokatlar, huquqshunoslar, sudyalar uchun normativ-huquqiy hujjatlarni tahlil qilish platformasi ishga tushiriladi. 2025-yil yakunigacha esa sud hujjatlarini avtomatik tayyorlash maxsus axborot dasturi yaratilishi ko‘zda tutilgan.

Sud tizimida sun’iy intellekt texnologiyalarini joriy etishning huquqiy asosi sifatida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 17-fevraldagi “Sun’iy intellekt texnologiyalarini jadal joriy etish uchun shart-sharoitlar yaratish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarorini ham ko‘rsatish mumkin. Mazkur qaror sun’iy intellekt texnologiyalarini jadal joriy etish va ularni mamlakatimizda keng qo‘llash, raqamli ma’lumotlardan foydalanish imkoniyatini va ularning yuqori sifatini ta’minlash, ushbu sohada malakali kadrlar tayyorlash uchun qulay shart-sharoitlar yaratishga qaratilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 26-avgustdagi “Sun’iy intellekt texnologiyalarini qo‘llash bo‘yicha maxsus rejimni joriy qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori ham sud tizimida sun’iy intellekt texnologiyalarini joriy etishning huquqiy asosi sifatida muhim ahamiyatga ega. Mazkur qaror sun’iy intellekt texnologiyalari asosidagi innovatsion biznes-modellar, mahsulotlar va xizmat ko‘rsatish usullari rivojlanishi uchun qulay va maqbul ekotizim yaratish, ularni belgilab berilgan ustuvor tarmoqlar va sohalarda tezkorlik bilan joriy etish va amaliyotga tatbiq etish maqsadida qabul qilingan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 14-oktabrdagi “Sun’iy intellekt texnologiyalarini 2030-yilga qadar rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Qarori ham sud tizimida sun’iy intellekt texnologiyalarini joriy etishning huquqiy asoslari sirasiga kiradi. Mazkur qaror bilan tasdiqlangan Sun’iy intellekt texnologiyalarini 2030-yilga qadar rivojlantirish strategiyasi sun’iy intellekt texnologiyalarini rivojlantirish bo‘yicha ustuvor maqsad va vazifalarni belgilab beradi.

Yuqorida keltirilgan me’yoriy-huquqiy hujjatlar O‘zbekiston Respublikasida sun’iy intellekt texnologiyalarini joriy etishning, shu jumladan sud tizimida ham qo‘llashning huquqiy asoslarini yaratdi. Bu hujjatlarda belgilangan maqsad va vazifalar, ustuvor yo‘nalishlar sud tizimida sun’iy intellekt texnologiyalarini joriy etishning ham asosiy yo‘nalishlarini belgilab beradi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 21-avgustdagi Farmoni esa, maxsus ravishda sud tizimida sun’iy intellekt texnologiyalarini joriy etishga qaratilgan bo‘lib, bu sohada aniq vazifalar va ularni amalga oshirish muddatlarini belgilab berdi.

Mashhura BAYBEKOVA,
Toshkent tumanlararo iqtisodiy
sudining sudyasi.

ADOLAT MEZONI

MUASSIS: «Nurafshon gulshani» mas’uliyati cheklangan jamiyati

Muharrir: M.ORTIQOVA

Tahririyat manzili: Andijon shahri, Navoiy shohko‘chasi, 71-uy. Telegram: (+998 99) 995-19-66 E-mail: and_mezoni@inbox.uz

Gazeta Andijon viloyati matbuot va axborot boshqarmasida 2010-yil 16-martda 04-040 raqam bilan ro‘yxatga olingan. Nashr ko‘rsatkichi - 2536

Gazeta tahrirriyat kompyuter bo‘limida terildi va sahifalandi. «ZAKOVAT» nashriyot uyi MCHJda original maket asosida chop etildi. Chop etishga topshirish vaqti 05.09.2025-yil, soat 11.00. Chop etishga topshirildi 05.09.2025-yil, soat 14.00. Korxona manzili: Kosonsoy shahri, Chorbog‘ ko‘chasi, 17-uy. Hajmi 2 bosma taboq. Qog‘oz bichimi A-3. Bahosi kelishilgan narxda. Buyurtma № . 188 nusxada bosildi.

Navbatchi: M.Mamatqulov. Dizayner: Sirojiddin Mamadali o‘g‘li